

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Osiyo xalqaro universiteti, o'qituvchi.

e-mail: yulduzsobirova048@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-4557-8735>

Annotatsiya.

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishda kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan didaktik o'yinlardan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ochiq savollar, muammoli vaziyatlar, mustaqil fikrlash, ijodiy faollik va bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kreativ yondashuv, didaktik o'yin, nutq, tafakkur, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyat, ochiq savol, nutqiy faollik, bilish faoliyati, pedagogik metodika.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В РАЗВИТИИ РЕЧИ И МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

Сидикова Юлдуз Собировна

Азиатский международный университет, преподаватель.

Аннотация.

В статье анализируются педагогические и методические возможности использования дидактических игр, организованных на основе креативного подхода, для развития речи и мышления детей дошкольного возраста. Особое внимание уделяется открытым вопросам, проблемным ситуациям, развитию самостоятельного мышления, творческой активности и коммуникативных навыков детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, креативный подход, дидактическая игра, речь, мышление, творческое мышление, самостоятельное мышление, проблемная ситуация, открытый вопрос, речевая активность, познавательная деятельность, педагогическая методика.

THE USE OF DIDACTIC GAMES IN DEVELOPING PRESCHOOL CHILDREN'S SPEECH AND THINKING THROUGH A CREATIVE APPROACH

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Asia International University, Lecturer.

Abstract.

The article analyzes the pedagogical and methodological possibilities of using didactic games organized on the basis of a creative approach to develop the speech and thinking skills of preschool children. Particular attention is paid to open-ended questions, problem situations, independent thinking, creative activity, and the development of children's communication skills.

Keywords: preschool education, creative approach, didactic game, speech, thinking, creative thinking, independent thinking, problem situation, open-ended question, speech activity, cognitive activity, pedagogical methodology.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish hamda ularni zamonaviy bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bilan qurollantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim mazmunini zamon talablariga moslashtirish, ta'lim sifatini oshirish, bolaning intellektual va ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek, uning muloqotga kirishish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki va muhim bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'limda bolaning keyingi ta'lim faoliyati uchun zarur bo'lgan nutqiy, aqliy, ijtimoiy va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'i kengayib, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi sezilarli darajada oshdi. 2026-yil 4-fevraldagi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 78 foizga yetgan. Shu bilan birga, qamrovni 80 foizga yetkazish, ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini kuchaytirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda samarali ta'lim yondashuvlarini keng qo'llash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Maktabgacha yosh davri bolaning nutqi, tafakkuri, tasavvuri va bilish

jarayonlari faol shakllanadigan rivojlanish bosqichidir. Mazkur davrda bolani faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish emas, balki uni savol berishga, fikr yuritishga, o'z qarashlarini ifodalashga, hodisalarni taqqoslashga, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga va muayyan xulosalarga kelishga o'rgatish muhimdir. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim jarayonida bolaning tabiiy qiziqishi, faolligi va o'yin faoliyatiga bo'lgan ehtiyojidan pedagogik maqsadlarda foydalanish samarali natija beradi.

Didaktik o'yinlar ana shunday imkoniyatga ega bo'lgan ta'lim vositalaridan biridir. Ular bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilganda ta'limiy vazifalarni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiradi. Ayniqsa, tarbiyachining kreativ yondashuvi asosida tashkil etilgan didaktik o'yinlar bolaning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi, tasavvuri va ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishi uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Bunday jarayonda o'yin shunchaki ko'ngilochar vosita sifatida emas, balki bolaning bilish faoliyatini faollashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi, tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari va bilish faoliyatini rivojlantirish masalalari pedagogika hamda psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biridir. Mazkur muammo doirasida bolalar rivojlanishining psixologik qonuniyatlari, ta'lim jarayonida o'yin faoliyatining o'rni, kreativ fikrlashni shakllantirish hamda pedagogning ijodiy faoliyatini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbek olimlaridan [1] R. A. Mavlonova, Sh. A. Sodiqova, N. Kayumova, F. R. Qodirova, M. Qodirova, S. I. Mirhayitova, N. A. Muslimov va boshqalarning tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim, pedagogik texnologiyalar, bolalarni rivojlantirish, ta'lim jarayonini takomillashtirish hamda pedagogning kasbiy kompetentligiga oid masalalar yoritilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan [2] J. Piage, E. Torrens, V. N. Shkina, O. K. Tixomirov, E. G. Yudin va boshqa olimlarning ilmiy qarashlarida bolaning tafakkuri, ijodkorligi, bilish faoliyati va shaxsiy rivojlanishining turli jihatlarini tadqiq etilgan.

Mazkur ilmiy qarashlarni umimlashtirish shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolaning tafakkuri va nutqini rivojlantirish jarayoni uning faol ishtiroki, amaliy harakati, muloqoti va mustaqil fikrlashi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli ta'lim jarayonida bolani faqat tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki o'z fikrini shakllantirish va ifodalash imkoniyatiga ega faol ishtirokchi sifatida ko'rish zarur.

Muhokama qismi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni tashkil etishda didaktik o'yinlardan foydalanish bolaning yosh xususiyatlari va rivojlanish darajasiga qarab bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Kichik guruhda sodda harakatlar, predmetlarni farqlash va nomlashga qaratilgan topshiriqlar ustuvor bo'lsa, o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlariga o'tish jarayonida taqqoslash, umimlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, mustaqil xulosa chiqarish hamda ijodiy topshiriqlar ulushi ortib boradi. Shu jihatdan didaktik o'yinning samaradorligi uning o'ziga emas, balki pedagog tomonidan qanday maqsadda va qanday metodik asosda tashkil etilishiga ham bog'liq.

Didaktik o'yinlardan foydalanishda tarbiyachining kreativ kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bir xil o'yinni turli yosh guruhlarida aynan bir shaklda qo'llash bolaning rivojlanish ehtiyojlarini to'liq qondirmasligi mumkin. Tarbiyachi mavjud o'yin mazmunini bolalarning yosh, individual va psixologik xususiyatlariga mos ravishda o'zgartirib, unga qo'shimcha savollar, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar va turli variantdagi yechimlarni kiritishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish orqali tafakkurini shakllantirish jarayonini shartli ravishda bir necha bosqichda tashkil etish mumkin. Dastlab bola predmet, hodisa yoki jarayonni bevosita kuzatadi. Keyinchalik kuzatilgan obyektning belgilari, vazifasi, boshqa predmetlardan farqi va o'xshash tomonlari haqida fikr yuritadi. Shu asosda bolaning so'z boyligi kengayadi, bog'lanishli nutqi shakllanadi va tafakkur operatsiyalari faollashadi.

Predmet yoki hodisani tabiiy holatda namoyish etish imkoniyati mavjud bo'lmagan vaziyatlarda turli ko'rgazmali vositalardan foydalanish mumkin. Masalan, hayvonlarni bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmagan sharoitda "Hayvonot bog'ida", o'simliklarni o'rganishda "Issiqxonada", sabzavotlarni o'rganishda "Dalada", mevalarni o'rganishda esa "Bog'da" kabi syujetli suratlar, rasmlar va boshqa ko'rgazmali materiallardan foydalanish mumkin. Shuningdek, maket, model, mulyaj, tasviriy material va predmetlarning ramziy ko'rinishlari ham bolaning tasavvurini kengaytirish va mavzuni yaxshiroq anglashiga yordam beradi.

Bunday faoliyat jarayonida bolaning faqat predmetni tanishi yoki nomini aytishi bilan cheklanib qolmasdan, "Nima uchun?", "Qanday?", "Agar shunday bo'lsa, nima bo'ladi?", "Boshqacha qanday qilish mumkin?" kabi savollar orqali fikrlashga undalishi muhimdir. Aynan shu jihat didaktik o'yinning oddiy mashqdan rivojlantiruvchi pedagogik vositaga aylanishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'limda tafakkurni rivojlantirish metodikasi o'zaro bog'langan pedagogik shart-sharoitlar, vositalar va usullar majmuini tashkil etadi. Bunda tarbiyachi, tarbiyalanuvchilar, ta'lim maqsadi, mazmuni, didaktik jarayonlar va tashkiliy shakllar yagona pedagogik tizim sifatida qaraladi. Mazkur tizimda tarbiyachining kreativ yondashuvi alohida o'rin tutadi. Chunki pedagog o'yin mazmunini oldindan belgilash bilan birga, bolalarning o'yin davomida yuzaga keladigan mustaqil fikrlari va kutilmagan javoblariga mos ravishda jarayonni moslashtira olishi kerak.

O'yin shunday ahamiyatga egaki, BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi" Konvensiyasida o'yinlarga quyidagicha izoh berilgan. O'yinlar va o'yin-kulgi bolalar salomatligi va farovonligi uchun juda muhimdir va ijodkorlik, tasavvur, o'z-o'ziga ishonch, samaradorlik hamda jismoniy, ijtimoiy, kognitiv va hissiy kuch va ko'nikmalarning rivojlanishiga zamin yaratadi [3]. Shu nuqtayi nazardan, didaktik o'yin asosidagi ta'lim jarayonini quyidagi tarkibiy qismlar orqali ifodalash mumkin:

- **I qism — ta'lim mazmuni va vazifalari.** Bu bosqichda o'yinning ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadi aniqlanadi.

- **II qism — ta'limni tashkil etish shakllari.** O'yinning yakka tartibda, kichik guruhda yoki jamoaviy tarzda o'tkazilishi belgilanadi.
- **III qism — metodlar, vositalar va topshiriqlar.** Bolalarning yoshiga mos savollar, ko'rgazmali vositalar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar tanlanadi.
- **IV qism — natijalarni aniqlash va o'zlashtirish darajasini baholash.** Bolaning topshiriqni bajarishi, fikrini ifodalashi, savollarga javob berishi va mustaqil yechim taklif qilishi kuzatiladi.
- **V qism — bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.** O'yinda o'zlashtirilgan bilimlarni keyingi faoliyatlarda takrorlash va qo'llash imkoniyatlari yaratiladi.
- **VI qism — tarbiyachi monitoringi.** Bolaning individual rivojlanishi, faolligi, nutqiy imkoniyatlari va tafakkuridagi o'zgarishlar muntazam kuzatib boriladi.

Mazkur tarkibiy tuzilma asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bolaning rivojlanish xususiyatlarini muntazam kuzatish, o'yin jarayonini moslashtirish va pedagogik ta'sir samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Nutq o'stirish hamda badiiy adabiyot bilan tanishtirish faoliyatlarida bolalar tafakkurini rivojlantirish uchun, avvalo, ta'lim jarayonining uzviyligi va izchilligini ta'minlash zarur. Bunda quyidagi pedagogik tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- ta'lim mazmunining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;
- ta'lim jarayonini izchil, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish;
- bola shaxsiga hurmat va insonparvarlik tamoyillariga amal qilish;
- pedagog va bola o'rtasida subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirish;
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash;
- ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarni bolaning yosh hamda psixologik xususiyatlariga moslashtirish;
- bolaning qiziqishi, ehtiyoji, mayli va individual imkoniyatlarini hisobga olish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ta'lim mazmunidagi uyg'unligini ta'minlash;
- ta'limiy faoliyatni aniq maqsad va reja asosida tashkil etish;
- bolaga differensial yondashish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida kommunikativ muhitni shakllantirish;
- bola rivojlanishidagi natijalarni muntazam kuzatish, nazorat qilish va monitoring olib borish.

Yuqoridagi tamoyillarga asoslangan ta'lim jarayoni bolaning pedagogik va psixologik xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Didaktik o'yinlarning pedagogik jarayondagi ahamiyati shundaki, ular bir vaqtning o'zida ham ta'lim vositasi, ham bolaning mustaqil faoliyat shakli sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli o'yinni ta'lim jarayoniga kiritishda uning mazmuni va maqsadini aniq belgilash muhimdir.

Didaktik o'yinlarni tashkil etishda pedagogning ijodkorligi muhim metodik omil hisoblanadi. Tarbiyachi o'yinning tayyor qoidalariga qat'iy bog'lanib qolmasdan, ta'limiy maqsadni saqlagan holda uning mazmuni va topshiriqlarini vaziyatga qarab o'zgartira olishi lozim. Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga: ongiga, his-tuyg'ulariga, irodasiga, xulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi lozim [4].

O'yin yakunidagi pedagogik tahlil ham muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi o'yin jarayonida qaysi usullar samarali bo'lganini, qaysi topshiriqlar bolalarda qiyinchilik tug'dirganini va buning sabablarini aniqlashi lozim. Bunday tahlil keyingi mashg'ulotlarni yanada samarali rejalashtirish bilan bir qatorda, bolalarning individual xususiyatlarini aniqlash va ular bilan individual ishlash yo'nalishlarini belgilashga yordam beradi. Didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan faoliyat interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish uchun ham keng imkoniyat yaratadi. Bunda bolaning boshqa bolalar, pedagog va atrof-muhit bilan faol o'zaro munosabatga kirishishi ta'minlanadi.

Didaktik o'yinlardan tashqari, harakatli va syujetli-rolli o'yinlar ham bolaning nutqi, tafakkuri, tasavvuri va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. O'yin inson faoliyatining tabiiy shakllaridan biri bo'lib, bola uchun u nafaqat hordiq chiqarish, balki atrof-muhitni anglash va o'z tajribasini qayta ishlash vositasi hamdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar kundalik hayotda kuzatgan voqea-hodisalarini o'yin orqali qayta ifodalaydilar. Shu jarayonda ular kattalar faoliyatini kuzatadilar, turli rollarni bajaradilar, o'zaro muloqotga kirishadilar va o'z tajribalari asosida yangi vaziyatlarni modellashtiradilar. Tizimli va erkin o'yinlar orqali bolalar quyidagi sohalarida rivojlanadilar [5]: bilish ko'nikmalari — muammoni hal qilish, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv; ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar — jamoada ishlash, muloqot va hamkorlikda muammolarni hal qilish, o'z-o'zini anglash, hamdardlik (tolerantlik) va sabrlik; jismoniy muvofiqlashtirish — yirik, mayda va sensomotor harakatlarni muvofiqlashtirish; ijodiy (kreativ) ko'nikmalar — turli elementlarni yangicha tarzda ijodiy uyg'unlashtirish qobiliyati; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari — bolalar va kattalar bilan suhbatlashish, o'z fikrlari va g'oyalarini so'z bilan ifoda etish, o'qish va yozishga tayyor bo'lish.

Nazariy va metodik manbalarni tahlil qilish asosida didaktik o'yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishdagi samaradorligini belgilovchi uchta asosiy omilni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi omil — o'yinning aniq rivojlantiruvchi maqsadga yo'naltirilganligi.

Har qanday didaktik o'yin ma'lum bir ta'limiy vazifani bajarishi bilan birga, bolaning nutqi, tafakkuri, xotirasi, tasavvuri yoki boshqa bilish jarayonlaridan kamida bittasini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Ikkinchi omil — bolaning faol ishtirokini ta'minlash.

Bola o'yinda faqat ko'rsatmani bajaruvchi emas, balki qaror qabul qiluvchi, savol beruvchi, fikr bildiruvchi va o'z yechimini taklif qiluvchi faol subyekt bo'lishi zarur.

Uchinchi omil — tarbiyachining kreativ yondashuvi.

Pedagog o'yin davomida bolalarning javoblari, qiziqishlari va faolligini kuzatib, topshiriqlar murakkabligini moslashtira olishi hamda kutilmagan vaziyatlardan rivojlantiruvchi maqsadda foydalanishi lozim.

Didaktik o'yin mazmunida bolaga fikrlash uchun qancha ko'p imkoniyat berilsa, uning rivojlantiruvchi ahamiyati ham shunchalik ortadi. Shu sababli tarbiyachi bolaning javobini oldindan belgilab qo'ymasligi, faqat "to'g'ri" javobni kutish bilan cheklanmasligi kerak. Aksincha, bolaning turli fikrlarini tinglash, ularni izohlashga va asoslashga undash muhimdir. Ayniqsa, "bitta topshiriq — bir nechta yechim" tamoyilidan foydalanish bolada ijodiy fikrlashni faollashtirish imkonini beradi. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega [6]. Shu bois kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan o'yinlar nutqiy faollik bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyat ham kasb etadi. Bola o'z fikrini tushuntirish, tengdoshining fikriga munosabat bildirish, savol berish, javobni to'ldirish yoki aniqlashtirishga ehtiyoj sezadi. Natijada dialogik va monologik nutqni rivojlantirish uchun tabiiy kommunikativ muhit yuzaga keladi.

Bunday yondashuv tarbiyachidan nafaqat o'yinlarni bilishni, balki ularning ichki pedagogik imkoniyatlarini ko'ra olishni ham talab qiladi. Har qanday didaktik o'yinni avtomatik tarzda "kreativ o'yin" deb baholash to'g'ri emas. Kreativ yondashuvning mohiyati yangi o'yin nomini yaratish yoki mavjud o'yinni butunlay almashtirishda emas, balki uning ta'limiy maqsadini saqlagan holda bolaga mustaqil fikrlash va turli yechimlarni izlash uchun qo'shimcha imkoniyat yaratishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, metodik jihatdan asosiy vazifa o'yinning tashqi shaklini o'zgartirish emas, balki uning ichki pedagogik mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Masalan, oddiy predmetlarni guruhlariga ajratish o'yinini olaylik. Agar bola faqat tarbiyachi belgilagan yagona mezon asosida predmetlarni ajratsa, uning ijodiy imkoniyati cheklangan bo'ladi. Agar unga "Bu predmetlarni yana qanday guruhlariga ajratish mumkin?", "Nima uchun shunday deb o'ylaysan?", "Boshqa bola boshqacha fikr bildirsa, qaysi javob to'g'ri bo'ladi?" kabi savollar berilsa, o'yin bolaning tahlil qilish, taqqoslash, asoslash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vositaga aylanadi.

Kreativ yondashuv didaktik o'yinning alohida turi emas, balki tarbiyachining mavjud didaktik o'yinni bolaning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi, nutqiy muloqoti va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirib tashkil etish strategiyasidir. Bunda o'yinning asosiy ta'limiy maqsadi saqlanadi, biroq savollar, topshiriqlar, vaziyatlar va muloqot shakllari bolaning faol fikrlashiga moslashtiriladi. Kreativ yondashuv asosida didaktik o'yinlardan foydalanishda ochiq savollar, muammoli vaziyatlar, variativ topshiriqlar, taqqoslash, umumlashtirish, taxmin qilish, hikoya tuzish, sabab-oqibatni aniqlash va fikrni asoslash kabi metodik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu usullar bolaning lug'at boyligini faollashtirish, bog'lanishli nutqini rivojlantirish, dialogik muloqotini shakllantirish bilan bir qatorda, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va muammoni hal qilish kabi tafakkur operatsiyalarining rivojlanishiga ham yordam beradi.

Shuningdek, tarbiyachining bolaning javoblariga munosabati ham muhim pedagogik shartlardan biridir. Bola tomonidan bildirilgan noodatiy yoki kutilmagan javobni darhol noto'g'ri deb baholash o'rniga, qo'shimcha savollar orqali uning fikrini tushuntirish va asoslashga undash samaraliroq natija beradi. Bunday pedagogik muhit bolaga o'z fikrini erkin ifodalash, xato qilishdan qo'rqmaslik, yangi variantlarni izlash va o'z qarashlarini asoslash imkonini beradi.

Didaktik o'yinlarni kreativ yondashuv asosida tashkil etishning yana bir muhim jihati — bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishdir. Bir xil topshiriq barcha bolalarda bir xil natija bermasligi mumkin. Shu sababli tarbiyachi o'yin davomida bolaning nutqiy faolligi, fikrlash tezligi, qiziqishi, mustaqilligi va muloqotga kirishish darajasini kuzatib borishi hamda zarur hollarda topshiriq murakkabligini o'zgartirishi lozim.

Xulosa o'rnida qayd etadigan bo'lsak, maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlardan kreativ yondashuv asosida foydalanish bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning samarali metodik vositalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Mazkur yondashuv bolaning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki uning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi, o'z fikrini tushuntira olishi, turli vaziyatlarda yechim topishi va yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan didaktik o'yinlarning samaradorligini maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida tajriba-sinov asosida o'rganish, bolalarning nutqiy va tafakkuriy rivojlanish dinamikasini aniq diagnostik mezonlar orqali baholash, shuningdek, olingan natijalarni an'anaviy ta'lim shakllari bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday empirik tadqiqotlar kreativ yondashuvning amaliy samaradorligini yanada aniqroq ko'rsatish va maktabgacha ta'lim amaliyotiga uni joriy etishning metodik mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova R. A. va boshq. Umumiy pedagogika: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b. – ISBN 978-9943-11-882-9.URL: [Termiz davlat pedagogika instituti elektron kutubxonasi](#)
2. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika: darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2013. – 288 b. – ISBN 978-9943-362-96-3.URL: [Elektron kutubxona — bibliografik kartochka](#)
To'liq elektron nusxa: [Maktabgacha pedagogika PDF](#)
3. Kayumova N. M. Maktabgacha pedagogika: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2013. – 184 b. URL: [Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti elektron kutubxonasi](#)
4. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh. Q., Kayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika: darslik. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. – 688 b. – ISBN 978-9943-24-220-3.URL: [Termiz davlat pedagogika instituti elektron kutubxonasi](#)

To'liq matn: [Maktabgacha pedagogika PDF](#)

5. Kadirova R. M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning omillari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2002.URL: [Manbaning bibliografik qaydi](#)

6. Mirhayitova S. I. Pedagogik texnologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 200 b. URL: [Pedagogik texnologiya — elektron nusxa](#)

7. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To'rayev A. B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari: o'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent, 2015. – 120 b.URL: [Elektron PDF nusxa](#)

8. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка / сост., новая ред. пер. с фр., коммент. Вал. А. Лукова, Вл. А. Лукова. – Москва: Педагогика-Пресс, 1994. – 526, [1] с. – (Психология: классические труды). – ISBN 5-7155-0694-8.URL: [Санкт-Петербургская государственная специальная центральная библиотека](#)

9. Grosheva I. V. O'yin orqali ta'lim olish: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 118 b. URL: [Nordic University elektron kutubxonasi](#)

10.Grosheva I. V., Mirziyoyeva Sh. Sh., Yevstafyeva L. G., Maxmudova D. T., Nabixanova Sh. B., Pak S. V., Nazarova V. A., Isxakova M. R., Abdunazarova N. F. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Takomillashtirilgan 2-nashr. – Toshkent, 2022. – 100 b. URL: [Elektron kutubxona — ilk qadam](#)

11.Djurayeva B. R., Tojiboyeva H. M., Nazirova G. M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zPFITI nashriyoti, 2015. – 112 b. URL: [Termiz davlat pedagogika instituti elektron kutubxonasi](#)

To'liq matn: [JDPU elektron kutubxonasi PDF](#)